

JAMOL KAMOL MUXAMMASLARI**Bazarova Xolida Ergashevna****NDKTU akademik litseyi ona tili va****adabiyot fani o'qituvchisi, mustaqil tadqiqotchi**<https://doi.org/10.5281/zenodo.21240188>

Annotatsiya: Mumtoz adabiyotga xos janrlarda ijod qilish, badiiy tasvir vositalarni qo'llash, o'zbek she'riyatining zabardast vakillariga ergashib she'rlar yozish allaqachon ozining yangi bosqichiga chiqqan. Ana shu tamoyilning markazida buyuk mutafakkir shoir Navoiyga izdoshlik turadi. Maqolada Jamol Kamolning Muhammad Fuzuliy, Alisher Navoiy va Boborahim Mashrab g'azallariga bog'langan muxammaslarining g'oyaviy-badiiy xususiyatlari tadqiq etilgan. "Vafo ahliga davrondin yetar jabr-u jafo asru" misrasi bilan boshlanuvchi Alisher Navoiy g'azaliga bitgan "Azaldin toleim rangida oq kamdur, qaro asru", Muhammad Fuzuliyning dunyoga mashhur "Yo Rab, baloyi ishq ila qil oshno mani...", Boborahim Mashrabning "Chun qo'lim birla oyog'im bog'lamoq hojat emas..." deb boshlanuvchi g'azaliga bog'langan muxammaslari tahlil qilingan. Muallif shoirning ustozlar ruhiyatini saqlash mahorati va tasavvufiy ramzlar talqinini tahlilga tortgan. Muxammaslar orqali zamonaviy o'zbek she'riyatida an'anaviylik va vorislik tamoyillari yoritib berilgan.

Kalit sozlar:

Navoiyning "Vafo ahliga davrondin yetar jabr-u jafo asru" g'azali, Muhammad Fuzuliyning "Yo Rab, baloyi ishq ila qil oshno mani...", B. Mashrabning "Chun qo'lim birla oyog'im bog'lamoq hojat emas..." g'azallari; tazmin, tatabbu'.

Kirish.

XX asrning ikkinchi yarmi va XXI asr boshlari o'zbek she'riyatining taraqqiyot tamoyillarida mumtoz adabiy manbalarga qaytish, Sharq irfoniy falsafasini milliy tafakkur prizmasidan o'tkazib talqin qilish tendentsiyasi yetakchi o'rin tutadi. Zamonaviy o'zbek she'riyatida M.Fuzuliy, A.Navoiy, B.Mashrab she'riyati ta'sirida o'xshatma – naziralar bitmagan ijodkorni topish qiyin. Bu an'ana butun bir ijodiy jarayonni tashkil etadi. Xususan, so'z mulkining sultoni Alisher Navoiyga ergashish o'ziga xos an'anaga aylangan. Bu haqda: "Adabiyotimizning barcha yirik vakillari, – deb yozadi adabiyotshunos U.Qosimov tadqiqot ishida, – Alisher Navoiy ijodidan va adabiy-estetik saboqlaridan oziqlanmagan, ta'sirlanmagan va ilhomlanmagan deyish bamisoli ular quyosh nuridan bahramand bo'lmagan deyishdek anoyilik bo'lar edi"¹. Xususan, Jamol Kamol hali maktabda o'qib yurgan kezlari dayoq Alisher Navoiy va Zahiriddin Muhammad Bobur she'rlaridan ruhlanganini o'zi bilan bo'lgan suhbatlarda qayd etadi.² O'zbek she'riyatining ulkan xazinasida ushbu izdoshlik mevasi bo'lmish ko'plab ilhom durdonalarining behisoblighi shundan. Fikrimizga dalil sifatida O'zbekiston xalq shoiri Jamol Kamol ijodi o'ziga xos maktab yaratganini keltiramiz. Shoir nafaqat tarjimonlikda, balki mumtoz janrlar, xususan, muxammasnavislik an'analari yangi bosqichga ko'tarishda ham salmoqli yutuqlarga erishdi. Olamning ikki ulkan qarama-qarshilik – ezgulik va yovuzlik, yaxshilik va yomonlik, oq va qora zidlanishlarda voqelanishi tasavvuf she'riyati vakillarining hayotga qarashlarida ham, ijodlarida ham o'z ifodasini topadi. Aynan mana shu tuyg'u ham salafdan xalafga, ustozdan shogirdga vorisiydir. Shoirning Muhammad Fuzuliy, Alisher Navoiy va Boborahim Mashrab g'azallariga bog'lagan muxammaslari shunchaki tazmin emas, balki klassik she'riyatimizdagi poetik ruhni va falsafiy teranlikni bugungi kun kitobxoni qalb prizmasidan

¹ Qosimov Usmon. Adabiy-estetik tafakkur tadriji: an'anaviylik, vorisiylik, ўziga xoslik (Abdulla Qodiriy, Abdulla Qaxxor, To'fay Murod ijodi misolida): Filol. fan. dokt. (DSc) diss. – T., 2020. – B. 25.;

² Qarant: Kamol J. She'r san'ati. Saylanma. III jild. – T.: «Yangi asr avlodi», 2018. – B. 38.

o'tkazib, qayta kashf etish namunasidir. Mazkur ilmiy maqolada ushbu muammaslarning poetik xususiyatlari va ular zaminida yashiringan tasavvufiy ohanglar tabiati yoritiladi.

Asosiy qism

Adabiyotshunoslikda tazmin san'atiga: **"Tazmin** (arab. — she'rdan bir parcha olish, ko'chirish) — poetik san'at turi. Shoir fikr va histuyg'usini tasdiqlash, isbotlash yoki davom ettirish uchun biror kimsa ijodidan shohbayt — aforizm darajasiga ko'tarilgan mashhur misrani o'z she'rida keltirishi. Tazmin misra g'azalning bir misrasi yoki matla'i sifatida keladi",³ ta'rif berilgan. Adabiyotshunos olim B.Fayzulloyev tazmin she'rlarning tatabbu' xususiyatiga ega bo'lishi haqida ham o'z tadqiqot ishida ma'lumot berib o'tgan⁴. Tazmin qilingan she'rda ko'tarilgan mavzu ustoz shoir mavzusiga hamohang, g'oyaviy jihatdan uning maslaklariga munosib bo'lib, ergashayotgan shoir tomonidan mantiqiy davom ettirilgan, kengaytirilgan, o'ziga xos tarzda yangilikka ega bo'lgan, novatorlik va an'anaviylik tamoyillariga xos bo'lgan namunalarni tazmin tatabbu' deb hisoblash mumkin. Aslida, tazmin tatabbu' asarlar yaratish ham an'anaviylik xarakteriga ega. Xususan, adabiyotshunos Baxtiyor Fayzulloyev Alisher Navoiyning Hofiz g'azallariga yoki Zokirjon Furqat Fuzuliyning "Surmadin ko'zlar qaro..." g'azaliga bog'lagan tazmin tatabbu' dalil sifatida keltirib, salaflarning xalaf she'rida ifodalagan fikrlarni ijodiy tarzda rivojlantirganliklarini qayd etadi. [O'sha asar.14-bet]. Jamol Kamolning "Vafo ahliga davrondin yetar jabr-u jafo asru" misrasi bilan boshlanuvchi Alisher Navoiy g'azaliga bitgan "Azaldin toleim rangida oq kamdur, qaro asru" g'azali ana shu tamoyillar asosiga qurilgan.

Hayotini ezgu ishlarga baxsh etgan, samimiy va diyonat sohiblari ahli davrondan doim ham hurmat va izzat ko'rmaydilar. Mashaqqat, ozor ular qalblarini yarador qiladi. Negaki, qalblar yaxshiliklardan nur emib, zavqqa to'lsa, yomonliklardan zada bo'lib, ozorlanadi. Shoir Jamol Kamol o'z muxammasida bu holatni "oq" va "qora" ranglarda ifodalaydi. Zero, Alisher Navoiy ham "jabr-jafo", "ozurda" so'zlarini "vafo ahli" holini tasvirlashda qo'llagan:

Azaldan toleim rangida oq kamdur, qaro asru,
Qarolikdin kelur boshimga har dam mojaru asru,
Bo'lubmen bu jihatdin munchakim zor-u ado asru,
Vafo ahliga davrondin etar jabr-u jafo asru,
Jafosidin aning ozurdadur ahli vafo asru.

Bu mulohaza shoirning M.Fuzuliy g'azaliga yozgan muxammasida ham davom etadi. Fuzuliy mavzuni to'g'ridan to'g'ri ishqqa qaratadi. Bunga ko'ra Alisher Navoiyda mavsu umumlashma tarzda namoyon bo'ladi, ya'ni Fuzuliy faqat "ishq ahli"ni e'tibor markaziga tortsa, Navoiy "vafo ahli" deb jamiyat a'zosini nazarda tutadi. Fuzuliy g'azalining *"Yo rab, baloyi ishq ila qil oshno mani, Bir dam baloyi ishqdin etma judo mani"* matla'siga javob Jamol Kamol tomonidan quyidagichadir:

Sehr aylamish to bir ajab nozik-ado mani,
Solmish, ko'ringkim, ne ajab o'tlarga, oh, mani,
Yo baxt, ko'yida oqibat ayla fido mani,
"Yo rab, baloyi ishq ila qil oshno mani,
Bir dam baloyi ishqdin etma judo mani"

Tasavvuf ta'limoticha, so'fiylar Olloh tajallisiga erishishni oliy maqsad sifatida ko'radi. Bu yo'lda uchrovchi barcha mashaqqat va qiyinchiliklarni yengib o'tmog'i lozim bo'ladi. Zahmatga to'la bu yo'lda oqdan ko'ra qora, ya'ni mushkulotlar bisyor. O'z maslagi yo'lidan qaytmaganlargina, sabr

³ <https://uz.wikipedia.org/wiki/Tazmin>

⁴ Файзуллоев Б.Б. Ўзбек шеърларида татаббуъ тарихи ва маҳорат масалалари (XVII-XIX асрлар ва XX аср бошлари ғазалчилиги): Филол. фан. бўйича фалсафа доктори (PhD) ... дисс. автореф. – Т., 2002. – 25 б.

va chidam ila olg'a intiluvchilargina “vafo ahli” dandurlar, ulargina boshga kelajak har qanday jafoga rozidirlar. Tasavvuf ta'limotidagi ana shu qarama-qarshilik she'rdam ham “oq-qaro”, “kam-asru”, “vafo-jafo” tarzida ifodalanib, tazod (qarshilantirish) badiiy tasvir vositasini; shuningdek, muxammasning to'rtinchi misrasida “vafo – jabr-u jafo”, beshinchi misrasida “jabr-u jafo – vafo” tarzida qo'llanib, tardi aks tasvir vositasini; birinchi misra so'ngida qo'llangan “qaro” ikkinchi misra boshida “qarolikdin”, to'rtinchi misra so'ngidagi “jafo” so'zi beshinchi misra boshida qo'llanib, tasbe' badiiy tasvir vositasini hosil qilgan. Bir e'tibor bering-a: muxammasning birinchi bandidayiq dastlabki to'rt misrada qofiyadosh sifatida qo'llangan “qaro – mojaru – zor-u ado – jabr-u jafo” so'zlarining beshinchi misrada birgina “vafo” qofiyasiga zid qo'yilishi – hayot mashaqqatlarining huzurbaxsh kunlarga nisbatan ko'pligi, rohatga nisbatan riyozatning bisyorligiga ishora. Zero, har qadamda mehrga jafo javobini olish ham azaliy qismat:

Bu g'amning ibtidosi hazrati Insondin ermishkim,

Bu savdo ixtirosi la'nati shaytondin ermishkim,

Bu kulfat, bu alamlar gardishi davrondin ermishkim,

– misralarida Jamol Kamol tasavvuf ta'limotining birinchi bosqichida qayd etilgan hazrati Inson – Odam Atoga ishora qilib, g'amning yoshi ham bashariyat bilan tengdosh, boshga tushadigan barcha ko'rguliklar makkor farishta Azozil – shaytondan, biz yashayotgan olam ham aslida zolim falak ekanidan ogoh etib, muxammasining to'rtinchi va beshinchi misralarida hazrat Navoiy g'azalining bir baytini aynan keltirish bilan bir tasalli, taskin berganday tasavvur uyg'otadi o'quvchida:

...Bukim, ahli vafo noyob erurlar, ondin ermishkim,

Bu eski toq alarga yog'dirur gardi balo asru...

Buyuk mutafakkir Navoiy o'z ustozlari izidan borib, ularning asarlariga javoban “Xamsa” yaratganida bu ishning g'oyat murakkabligini bayon etgan edi:

...Emas oson bu maydon ichra turmoq,

Nizomiy panjasiga panja urmoq...

Tutaykim, qildi o'z changini ranja,

Nekim, urdi aning changiga panja...”

Jamol Kamol ham mazkur misralarni bitganida o'zini hazrat Navoiy qarshisida necho'g'li tutgani ayon.

Tasavvuf shunday ta'limotki, u o'z o'quvchisini mehnat va zahmatga o'rgatadi. Boshga tushajak barcha alam va mashaqqatlarga sabrli va bardoshli bo'lishga undaydi. Zero, buyuk maqsad – Oллоh tajallisiga erishishning yagona yo'li ham shu:

Garonjonlig'ni qo'y, jon ber, tilar bo'lsang dur-u maqsud,

Ki olamda og'irdur ushbu javhargah baho asru,

– tarzida bayon etilgan Navoiy baytiga javoban Jamol Kamol:

Farog'at istagin etma, mashaqqat yo'liga yuz tut,

Ko'ngul darbozasin ochgil jahonga, bo'lmagil mahdud,

Alamdin ne samar bo'lgay, figon-u noladin ne sud,

– deya ko'ngilni tinchlantiradi. Mazkur qarash shoirning Boborahim Mashrabning “*Chun qo'lim birla oyog'im bog'lamoq hojat emas, Men o'limga roziman, chun turgali toqat emas*” deb boshlanuvchi g'azaliga yozgan muxammasida o'z ifodasini topgan. Mazkur g'azal haqida mashrabshunos olim Mahmud Hasaniy quyidagi ma'lumotni keltiradi: “Balx hukmdori Mahmudbiy Qatag'on tomonidan 1711-yilda dorga osib o'ldirishga farmon beriladi. Mashrab qo'llarini bog'lab o'limga olib ketmoqchi bo'lgan jallodlarga mardona boqib, shunday deydi:

Chun qo'lim birla oyog'im bog'lamoq hojat emas,
Man o'lumg'a roziman chun turg'ali toqat emas.
Muncha shiddat birla boshim kesgali zo'r aylama,
Baski odam qoni to'kmak sanga ham toat emas.
Chun muborak bo'lsun, ey Mashrab, qizil qoning seni,
Xo'b ish bo'ldi senga jon berganing ofat emas”⁵.

Boborahim Mashrab – o'zbek adabiyotidagi eng jo'shqin, murosasiz va isyonkor qalandariylik tariqati vakillaridan biridir. Jamol Kamol Mashrab g'azaliga muxammas bog'lar ekan, shoirning fojiaiy qismati va lirik qahramonning o'lim qarshisidagi qo'rquvsizligini, ya'ni ishqiy shahodatni bosh mavzu qilib oladi. Tasavvuf ta'limoticha, o'lim – visoldir. Muxammasning birinchi bandida ilohiy tajallidan umidvorlik, balki ishonch e'tirofi namoyon bo'ladi:

*Menga mohi tal'ating ko'rmoqqa endi had emas,
Lab ochib, dardim bayon etmoqqa ham rag'bat emas,
O'tiribman zor-u giryon, yurgali holat emas,
Chun qo'lim birla oyog'im bog'lamoq hojat emas,
Men o'limga roziman, chun turgali toqat emas.*

Jamol Kamol Alisher Navoiy g'azaliga yozgan muxammasida bir-biriga mutanosib “mashaqqat – alam – figon – nola”, shuningdek, “farog'at – duri maqsud – javhar” so'zlari bilan tanosub badiiy tasvir vositasining go'zal namunasini yarata olgan. Mashrab g'azaliga yozilgan muxammasda ham tanosub badiiy tasvir vositasi shoirning ustoz mutafakkir qarashlariga munosibligini ko'rsatishiga xizmat qilgan. Jumladan, she'rda “had emas–rag'bat emas– hojat emas–toqat emas” tarzidagi iqrorning qofiyadosh so'zlar bilan berilishi she'r ta'sirchanligini oshirishga ham xizmat qilgan.

G'azallarning ichki tuzilishiga ko'ra lirik chekinishi bo'lgan matla'dan oldingi bayt, ya'ni begona baytda shoir o'zi aytmoqchi bo'lgan fikrning mag'zini ifodalaydi. Mazkur she'rda ham Navoiy g'azal mohiyatini tasavvufiy qarashlar bilan ko'rsatadi. Baytda ta'kidlangan falsafiy g'oya nihoyatda chuqur:

*Chu kavsar jomi zikri qilmadi raf' o'zligim qaydin,
Bu ranjima hamono naf' etar jomi fano asru.*

Bir qarashda osonroq tuyulgan mohiyat “kavsar jomi – jomi fano” zidlanishida oydinlashganday bo'ladi-yu, biroq baytda qo'llangan “jom” tasvirini oydinlashtirish foydadan xoli emas. Tasavvuf ta'limotida jom obrazi qalbni ifodalaydi. Shariat yo'liga kirgan so'fiy jannat umidi bilan toat-ibodatga beriladi. Tasavvuf yo'lidagi so'fiy undan farqliroq jannat orzusidan begona, u Olloh tajallisiga erishishni maqsad qilgan. Shundan u “jannat jomi”ga erishib ham, o'zida yuksaklik his etmaydi. Jamol Kamol mazkur tuyg'uni shunday izhor etadi:

*Jahon sayyod emishkim, qo'ymadi bu jon degan saydin,
Tasalli istadim jonimga goho nolay naydin,
Gahi topdim halovat ko'nglim ichra shishayi maydin...*

Bandda qo'llangan “nay”, “may” istilohlarini ochiqchasak, Navoiy hazratlari aytmoqchi bo'lgan chin maslak yanada teranlashadi. May – Ollohga bo'lgan ishq, u solingan idish – shisha esa qalbni, nay timsoli oshiqning sirlarini ochish vositasini ifodalashda qo'llanadi. May idishda bo'lgani kabi Ollohga bo'lgan muhabbat ham qalbdan bo'ladi va chin oshiq sirini nay “oshkor etadi”. Tasavvuf ta'limoti maqsadining bunchalar yorqin va ravon ifodalanishi ijodkor qalamining o'tkirligi,

⁵ М.Бобораҳим. МАБДАЙИ НУР. Сайланма (ғазаллар ва мустазодлар). «Фан» 1994 Б.3

iste'dodining go'zalligi namoyishidandir. Jamol Kamol mazkur nazira bilan Navoiy g'azaliga go'yo ikkinchi hayot baxsh etadi.

Xulosa.

Xulosa o'rnida ta'kidlash joizki, o'zbek she'riyatida an'anaviylik va novatorlik dialektikasini belgilashda tazmin tatabbu' va muxammasnavislik fenomenlari alohida metodologik ahamiyatga ega. Taniqli shoir Jamol Kamolning Alisher Navoiy, Muhammad Fuzuliy va Boborahim Mashrab g'azallari asosida yaratilgan poetik asarlari o'zbek zamonaviy she'riyatining bugungi qiyofasi rivojida o'z ahamiyatiga ega. Jamol Kamol salaflarining poetik d takrorlamasdan, balki ularni konseptual jihatdan boyitadi. Tasavvufiy istilohlar *fano* (o'zlikdan kechish) va *baqo* (Haqda abadiylik) kabilarni qo'llab, ustozlar an'anasiga sodiq qoladi. Shoir lirik qahramon ruhiyatidagi dialektik ziddiyatlarni ochishda an'anaviy ramziy obrazlar — “*jom*” (qalb), “*may*” (ilohiy muhabbat) va “*nay*” (oshiq sirlarining bayoni) istilohlarining botiniy mohiyatini o'quvchi idrokiga mos ravishda muvaffaqiyatli oydinlashtirgan. She'rlarda qo'llangan *tazod* (qarshilantirish), *tardi aks* (teskari takror), *tasbe'* va *tanosub* kabi kompozitsion-badiiy tasvir vositalari kontekstda shunchaki bezak bo'lib qolmay, g'oyaviy yukni va estetik ta'sirchanlikni ta'minlovchi lingvopoetik dominantlar sifatida namoyon bo'ladi. Boborahim Mashrabning isyonkorona dunyoqarashi va dor ostidagi tarixiy fojiasi matnda *talmeh* san'ati vositasida lirik qahramonning o'lim qarshisidagi qo'rquvsizligi — *ishqiy shahodat* kontsepti orqali ochib berilgan. Xullas, Jamol Kamol o'zining tazmin tatabbu' yo'nalishidagi izlanishlari bilan o'zbek adabiyotidagi estetik vorislik tamoyillarini yangi bosqichga ko'tardi.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. Alisher Navoiy. Badoye' ul-bidoya. 1-tom. – Toshkent, 1987. – 463-b.
 2. Alisher Navoiy. Farhod va Shirin. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2020. – 26-b.
 3. Berdak Yusuf. Mumtoz adabiy asarlar lug'ati. – Toshkent: Sharq, 2010. – 36-b.
 4. Kamol Jamol. She'r san'ati. Saylanma. III jild. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2018. – 38-b.
 5. Kamol Jamol. Yonayotgan dala (Saylanma). II jild. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2018. – 245-b.
 6. Бобораҳим Машраб. Мабдайи нур. Сайланма (ғазаллар ва мустазодлар). – Тошкент: Фан, 1994. – 3-б.
 7. Қосимов Усмон. Адабий-эстетик тафаккур тадрижи: анъанавийлик, ворисийлик, ўзига хослик (Абдулла Қодирий, Абдулла Қаҳҳор, Тоғай Мурод ижоди мисолида): Филол. фан. докт. (DSc) дисс. – Тошкент, 2020. – 25 б.
 8. Файзуллоев Б.Б. Ўзбек шеъриятида татаббуъ тарихи ва маҳорат масалалари (XVII-XIX асрлар ва XX аср бошлари ғазалчилиги): Филол. фан. бўйича фалсафа доктори (PhD) дисс. автореф. – Тошкент, 2002. – 25 б.
- Tazmin // Internet resurs: <https://uz.wikipedia.org/wiki/Tazmin>